

## 07.00.00 – TARIX FANLARI

### HARBIY XIZMATGA SAFARBAR ETISHDA TIBBIY KO‘RIK DAN O‘TKAZISH MASALALARI (1991-2012-YILLAR)

*Abdug‘aniyeva Gulira’no Alijon qizi,  
O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix instituti tayanch doktoranti  
ORCID ID 0009-0008-2742-0941*

*Annotatsiya. Maqolada mustaqillikning dastlabki yillarida milliy armiya tarkibini harbiy xizmat qilishga layoqatli kadrlar bilan ta’minlashda yuzaga kelgan muammolar, ushbu masalalarni yuzaga keltirgan omillar va ularning mudofaa tizimiga ta’siri o‘rganilgan. Shu maqsadda ushbu muammolarni bartaraf etish, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safini jismonan baquvvat va sog‘lom kadrlar bilan to‘ldirish hamda xizmat davomida sifatli va malakali tibbiy xizmat ko‘rsatilishini ta’minlash maqsadida amalga oshirilgan islohotlar, ularning amaliy natijalari tahlil etilgan. Mavzu manbalarni qiyosiy va tanqidiy tahlil etish hamda tizimlashtirish usullaridan foydalanilgan holda tadqiq etildi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivida saqlanayotgan hujjatlar yo‘nalishlar bo‘yicha tavsiflanib, O‘zbekiston Mudofaa vazirligi Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan ma’lumotlar ilk bor ilmiy muomalaga kiritildi. O‘tgan o‘ttiz yillik davr mobaynida xizmatga chaqiriluvchilar va harbiy xizmatchilar salomatligini ta’minlash masalasida amalga oshirilgan ishlar xizmatga layoqatsiz o‘smirlarning armiya safiga yuborilishini kamayishiga, o‘smir-yoshlarni salomatligini doimo nazoratda tutish orqali Qurolli Kuchlar safini sog‘lom kadrlar bilan ta’minlashga, alohida harbiy tibbiyot fakulteti va akademiya tashkil etish, xorijdagi harbiy tibbiyot muassasalarida ta’lim olish orqali ushbu sohaga malakali mutaxassislarini jalb etishni ta’minlashga olib keldi.*

*Kalit so‘zlar: harbiy xizmatga chaqiruv bo‘limi, Nazorat tibbiy chaqiruv komissiyasi, dispenser nazorati, bahorgi chaqiruv, kuzgi chaqiruv, yassi oyoqlik, varikoz, vazn yetishmasligi harbiy-tibbiyot fakulteti, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy tibbiyot akademiyasi.*

### ВОПРОСЫ МЕДИЦИНСКОГО ОБСЛЕДОВАНИЯ ПРИ МОБИЛИЗАЦИИ НА ВОЕННУЮ СЛУЖБУ (1991-2012ГГ.)

*Абдуганиева Гулирано Алиджана кизи,  
Докторант Института истории Академии наук Узбекистана*

*Аннотация. В статье изучены проблемы, возникшие в первые годы независимости в обеспечении личного состава национальной армии кадрами, способными к военной службе, факторы, вызвавшие эти проблемы и их влияние на систему обороны. В этих целях реализуются реформы, направленные на устранение данных проблем, пополнение рядов Вооружённых Сил Республики Узбекистан физически крепкими и здоровыми кадрами, а также обеспечение предоставления качественных и квалифицированных медицинских услуг в период службы, проанализированы их практические результаты. Тема исследована с использованием методов сравнительного и критического анализа и систематизации источников. Документы, хранящиеся в Центральном государственном архиве Республики Узбекистан, описаны по направлениям, а информация, хранящаяся в Центральном государственном архиве Министерства обороны Узбекистана, впервые введена в научный оборот. За последние тридцать лет работа,*

проводимая в деле обеспечения здоровья призывников и военнослужащих, привела к уменьшению количества негодных подростков, направляемых в армию, а за счет постоянного контроля за здоровьем подростков, в рядах Наполнение Вооруженных Сил здоровыми кадрами привело к созданию отдельного военно-медицинского факультета и академии, привлечению в эту область квалифицированных специалистов путем обучения в военно-медицинских учреждениях за рубежом.

*Ключевые слова:* военкомат, Контрольная врачебная призывная комиссия, диспансерный контроль, весенний призыв, осенний призыв, плоскостопие, варикозное расширение вен, дефицит веса, военно-медицинский факультет, военно-медицинская академия Вооруженных Сил Республики Узбекистан.

## ISSUES OF MEDICAL EXAMINATION DURING MOBILIZATION FOR MILITARY SERVICE (1991-2012)

*Abduganiyeva Gulira'no Alijan kizi,*

*Doctoral student of the Institute of History of the Academy of Sciences of Uzbekistan*

*Abstract. In the article, the problems that arose in the first years of independence in providing the personnel of the national army with personnel capable of military service, the factors that caused these problems and their impact on the defense system were studied. For this purpose, the reforms implemented in order to eliminate these problems, to fill the ranks of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan with physically fit and healthy personnel, and to ensure the provision of quality and qualified medical services during the service, and their practical results have been analyzed. The topic was researched using the methods of comparative and critical analysis and systematization of sources. The documents stored in the Central State Archive of the Republic of Uzbekistan were described by directions, and the information stored in the Central State Archive of the Ministry of Defense of Uzbekistan was put into scientific circulation for the first time. During the past thirty years, the work carried out in the matter of ensuring the health of conscripts and military personnel has led to a decrease in the number of unfit teenagers being sent to the army, and by constantly monitoring the health of teenagers, the ranks of the Armed Forces are filled with healthy personnel. led to the establishment of a separate military medical faculty and academy, attracting qualified specialists to this field through training in military medical institutions abroad.*

*Key words:* military conscription department, Control medical conscription commission, dispenser control, spring conscription, autumn conscription, flat feet, varicose veins, underweight, military medical faculty, military medical academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan.

**KIRISH.** Mustaqillikning dastlabki yillaridagi vaziyat O'zbekiston Respublikasi mudofaa siyosatining ajralmas qismi sifatida harbiy xizmatga chaqiriluvchilar hamda milliy kadrlarni jismonan baquvvat, ma'nan barkamol tarbiyalash hamda ularga zamonaviy tibbiy xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish masalalariga alohida e'tibor qaratish zaruratini yuzaga keltirdi. Buning asosiy sababi sifatida esa sovet Ittifoqi davrida olib borilgan noto'g'ri siyosat natijasida bo'lajak harbiy xizmatchilar, ya'ni o'smirlar salomatligida ko'plab muammolar paydo bo'lganligini ko'rsatib o'tish mumkin. Xususan, kelajak avlod jismoniy baquvvat, sog'lom bo'lib tug'ilishi uchun ichimlik suvlari toza bo'lishi, samolyotlar orqali zaharli kimyoviy moddalar bevosita aholi ustidan tashlanmasligi va havoni ifloslamasligi, bozorlarning to'kin bo'lishi, narx navolar arzonlashtirilishi zarur edi. Biroq Ittifoq manfaatlarining inson manfaatlaridan

ustun qo'yilishi aholi salomatligiga o'z salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Natijada istiqloq qo'lga kiritilgandan so'ng ham Qurolli Kuchlar tarkibiga sog'lom va jismonan baquvvat kadrlar yuborish masalasi borasida qator qiyinchiliklar yuzaga keldi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Harbiy xizmatchilarning salomatlik holatini o'rganish, ularni sog'lig'iga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, davolash profilaktika yordami va klinik kuzatuvni yanada yaxshilash alohida ahamiyatga ega. Bu borada tibbiyot sohasi vakillari L.U. Anvarova, N.V. Voronina tomonidan harbiy bilim yurtlari kursantlarining salomatlik holatini har tomonlama baholash va uni yanada yaxshilash yo'llari hamda tinchlik davrida O'zbekiston Respublikasi harbiy xizmatchilarining ovqatlanishini ratsionalizatsiya qilishning gigiyenik asoslari masalalari yuzasidan tadqiqot ishlari olib borilgan[6;7]. Yuqorida keltirilgan ilmiy ishlardan farqli o'laroq, mazkur maqolada harbiy xizmatga chaqiruv jarayonida tibbiy nazoratni olib borishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar, armiya safidan salomatligi sababli xizmatga layoqatsiz deb topilib, zahiraga bo'shatishning sabab va omillari, harbiy tibbiy ta'limning yo'lga qo'yilishi va rivojlanishi masalalari tarixiy jihatdan o'rganilgan.

1993-yil bahorgi chaqiruv natijalari bo'yicha harbiy va muqobil xizmatga chaqiriluvchilarning 69,5% xizmatga yaroqli, 21,1% foizi yaroqsiz, 9,2% esa salomatligi tufayli xizmat muddati vaqtincha kechiktirilganlar deb topilganligini keltirish mumkin. Ma'lumki, salomatligi tufayli chaqiruv muddati kechiktirilganlar yangi chaqiruv mavsumigacha sog'lomlashtirilishi zarur. Ammo joylardagi poliklinika xodimlari va rahbarlari tomonidan sog'lomlashtirish ishlari o'z vaqtida olib borilmaganligi hamda zaruriy tibbiyot uskunlari yetarli darajada ta'minlanmaganligi sababli ularning ko'pchiligi yaroqsiz toifasiga kirib qolishi yoki yangi tekshiruv mavsumida yana qaytadan tekshiruvga yuborilishni talab etgan[1].

**NATIJA VA MUHOKAMA.** 1993-yil bahorgi chaqiruv chog'ida tibbiy ko'rikdan o'tgan jami 73 mingga yaqin chaqiriluvchilarning 12335 nafari ya'ni 14,4% qayta tekshiruvga yuborilgan. Toshkent shahridan jami tibbiy ko'rikdan o'tganlarning 2650 nafari (24,2%), Toshkent viloyatidan 3086 nafar (23,5%), Qashqadaryo viloyatidan 700 nafar (21,4%), Qoraqalpog'iston Respublikasidan 849 nafar (14,2%) qayta tekshirishga yuborilgan. Bularning 56,4% shifoxona, 43,5% ambulator-poliklinika sharoitida tekshiruvdan o'tkazilgan. Tekshiruv xulosasi sifatida chaqiriluvchi yoshlardagi kasalliklarni bolalik va o'smirlik chog'larida hududiy davolash-profilaktika muassasalarida o'z vaqtida aniqlash va sog'lomlashtirish ishlari olib borilmaganligining natijasi ekanligi qayd etilgan. O'smirlar va harbiy xizmatga chaqiriluvchi yoshlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish va sog'lomlashtirishda ambulatoriya-poliklinikalarining sharoitlari, konsultativ-diagnostika markazlari hamda kunduzgi shifoxonalar imkoniyatlaridan keng foydalanilmagan. Shu sababga ko'ra yoshlarni harbiy xizmatga yuborish hollari keskin kamayishiga olib kelgan[2].

1993-yil bahorgi chaqiruv natijalarida kuzatiladigan yana bir jihat shuki, nosog'lom o'smirlarni "sog'lom" yoki "yaroqli" sifatida harbiy xizmatga yuborilishi edi. Mazkur chaqiruv davrida 112 nafar chaqiriluvchilardan "sog'lom" degan xulosa bilan armiya xizmatiga yuborilib, lekin xizmatning dastlabki kunlaridayoq turli kasalliklar tufayli "yaroqsiz" ekanligi aniqlangan. Eng yuqori ko'rsatkichlar – Toshkent shahri (25 kishi) va Toshkent viloyatida (17 kishi) kuzatilgan. Vaholanki, bu raqamlarni harbiy xizmatga yaroqli deb topilgan hamda Qurolli Kuchlar safiga jo'natilganlarga nisbatan olsak, har ming kishi hisobiga Buxoro viloyatidan 5,5, Sirdaryo viloyatidan 5,4, Toshkent shahridan 4,6 kishi xizmatdan qaytgan hisoblanadi. Harbiy xizmatdan qaytarib yuborilgan 112 nafar yoshlarning kasallik tarixi tahlil etilganda ularning 42 tasi (37%) ruhiy kasalliklar, 33 tasi (29%) jarrohlik kasalliklari, 21 tasi (18,7%) ichki kasalliklari bo'yicha bo'lib, qolganlari asab (7%), quloq-tomoq-burun (5%), ko'z (3%) kasalliklari sababli o'z

xizmatini davom ettira olmagan.

Shunindek, yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashdagi muammolardan yana biri tibbiy mutaxassislar tomonidan o'smirlar va yoshlarning salomatligini muhofaza qilish masalalari ustida yetarlicha ish olib borilmaganligida edi. Masalan, 1993-yilda davolanish uchun harbiy xizmat muddati kechiktirilgan yoshlarning faqat 59% keyingi chaqiruvgacha sog'lomlashtirilgan. Bu ko'rsatkich Surxondaryo viloyatida 35%, Qashqadaryo viloyatida 33%, Navoiy viloyatida 32%, Buxoro viloyatida 29%, Jizzax viloyatida 24%, Farg'ona viloyatida 12 %ni tashkil etadi.

Shu bilan bir qatorda, mazkur yilda chaqiriluvchi yoshlarning 20,6 % harbiy hisobga olishda birinchi marta dispenser nazoratiga olingan. Bu 17 yoshlilar ichida 69,3% ni tashkil etgan. Bunday ko'rsatkichlar Qoraqalpog'istonda – 38,4%, Toshkent viloyati – 32,3%, Namangan viloyatida – 27,5 %ni tashkil etadi.

Buni bartaraf etish maqsadida 1999-yil 25-avgustda Mudofaa vazirligining №202-sonli va Sog'liqni saqlash vazirligining № 520-sonli "Chaqiruv komissiyalarining ish faoliyatini yaxshilash to'g'risida" gi qo'shma buyrug'i qabul qilingan. Unga ko'ra doimiy faoliyat ko'rsatayotgan Nazorat tibbiy chaqiruv komissiyasi a'zolari tomonidan har bir chaqiriluvchilarni harbiy qismlarga jo'natiladigan kun qayta tibbiy ko'rikdan o'tkazish belgilandi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad armiya safiga yuborilgan o'smirlarning salomatligi sababli xizmatdan qaytarilishini oldini olishdan iborat edi.

Shunga qaramasdan, keyingi yillarda ham ushbu muammoning qaytarilish hollari yuqoriligicha qolgan. Jumladan, 2001-yil tibbiy komissiya a'zolarining o'z ish faoliyatlariga sovuqqonlik bilan qaraganligi tufayli kuzgi chaqiruvda Qashqadaryo viloyatlarining Qarshi shahri, Qamashi, Shahrisabz, Qarshi tumanlaridan 7 nafar chaqiriluvchilar, Samarqand viloyatining Temiryo'l, Urgut, Pastdarg'om, Jomboy, Qo'shrabod, Narpay, Kattaqo'rg'on, Bulung'ur, Toyloq tumanlaridan 21 nafar harbiy xizmatga yuborilgan yoshlar xizmatdan qaytarilgan.

Biroq 2003-yilgi chaqiruvlarda muqobil tibbiy ko'rik komissiyalarining joriy qilinishi, ularning tarkibiga Mudofaa vazirligi harbiy tibbiy komissiyalarining kiritilishi natijasida salomatligi harbiy xizmatni o'tashga to'g'ri kelmaganligi sababli qaytarilgan chaqiriluvchilar hamda xizmat davomida olingan jarohatlanishlar sonining keskin kamayishiga olib keldi. Masalan, 2002-yil bahorgi chaqiruv davomida 101 nafar chaqiriluvchi xizmatdan qaytarilgan bo'lsa, 2003-yil bahorgi chaqiruvlarda bu ko'rsatkich 50 nafarni tashkil etgan. 2002-yil davomida Qurolli Kuchlarda 655 ta jarohatlanishlar kuzatilgan bo'lsa, 2003-yilda bu ko'rsatkich 447 tani tashkil etgan.

Salomatligi tufayli harbiy xizmatni o'tashga layoqatsizligi sababli Qurolli Kuchlar safidan zahiraga bo'shatilib, o'z uyiga qaytarilgan chaqiriluvchilarning hudud kesimidagi ko'rsatkichlari:[1]

№	Hudud nomi	2002-yil bahorgi chaqiruv	2002-yil kuzgi chaqiruv	2003-yil bahorgi chaqiruv
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4 nafar	4 nafar	-
2	Navoiy viloyati	5 nafar	5 nafar	2 nafar
3	Namangan viloyati	10 nafar	6 nafar	5 nafar
4	Farg‘ona viloyati	12 nafar	6 nafar	4 nafar
5	Sirdaryo viloyati	6 nafar	4 nafar	4 nafar
6	Xorazm viloyati	9 nafar	6 nafar	2 nafar
7	Toshkent viloyati	10 nafar	5 nafar	4 nafar
8	Buxoro viloyati	20 nafar	8 nafar	4 nafar
9	Andijon viloyati	9 nafar	13 nafar	7 nafar
10	Surxondaryo viloyati	6 nafar	5 nafar	7 nafar
11	Jizzax	10 nafar	13 nafar	3 nafar
12	Qashqadaryo viloyati	-	5 nafar	3 nafar
13	Samarqand viloyati	-	8 nafar	5 nafar
14	Toshkent shahri	-	5 nafar	-
	Jami:	101 nafar	123 nafar	50 nafar

Shu bilan bir qatorda, chaqiriluvchilar orasida sog‘lomlashtirilishi lozim bo‘lgan o‘smirlar soni yildan yilga o‘sib borish tartibini kuzatish mumkin. Bu esa tibbiy tekshiruvlar sifatli va sinchkovlik bilan amalga oshirilganligini anglatadi. Buning samarasi o‘laroq salomatligiga ko‘ra harbiy xizmatdan qaytgan chaqiriluvchilar sonining kamayishi kuzatildi. Sog‘lomlashtirilganlar foizi ham dispanser ko‘rigidan o‘tkazilganlar orasida bosqichma-bosqich yuqori ko‘rsatkichni ko‘rsatgan. Buni esa chaqiriluvchilar salomatligini yaxshilash orqali milliy armiyani jismonan sog‘lom kadrlar bilan ta‘minlash hamda harbiy tibbiyot tarmog‘ini yanada rivojlantirish maqsadida qariyb chorak asr davomida amalga oshirilgan ishlarning amaliy natijasi sifatida baholash mumkin.

Jumladan, 2007-yil 19-sentabrda Yoshlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishga 117 nafar shifokor jalb qilingan bo‘lib, davolanishga yuborilgan yoshlarning 70 %ini salomatligini tiklashga erishilgan[2]. 2009-2010-yillarda esa 1993-yilda tug‘ilgan o‘smirlarni chaqiruv uchastkalarida qayd etish yo‘li bilan hisobga olish natijalariga

ko'ra, sog'lomlashtirilishi lozim bo'lgan 3102 nafar o'smirdan 2708 nafari (87,3%) sog'lomlashtirilgan. Tekshiruvlarga ko'ra, Chilonzor tumanidagi o'smirlar asosan yassi oyoqlik, varikoz, vazn yetishmasligi, Sergeli tumanidagi yoshlar o'rtasida esa quloq-burun kasalliklarining ko'proq uchrayotganligi ma'lum bo'ldi[2]. 2011-2012-yillarda esa o'smirlar sog'ligini muhofaza qilish bo'yicha 1995-yilda tug'ilgan o'smir yoshlar dispanser ko'rigidan o'tkazilgan. 15480 nafar o'smirlardan 15155 nafari ko'rikdan o'tkazilib, ulardan 6236 nafari davolanishga muhtoj deb topilib, ularning 91,5 %ni salomatligi tiklashga erishilgan[1].

2018-yil 25-dekabrda chaqiriluvchilar va harbiy xizmatchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish sifatini yanada yaxshilash va samaradorligini oshirish, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar safini sog'lom va jismonan baquvvat harbiy xizmatchilar bilan to'ldirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida tinchlik va urush davrida tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qaroriga asosan sog'liq va jismoniy rivojlanish holatining ko'rsatkichi bo'yicha harbiy xizmatga yaroqlilik darajasi 6 toifaga ajratildi[4]:

"A" toifaga qo'shinlarning barcha turlarida hamda barcha harbiy mutaxassisliklar bo'yicha harbiy xizmat o'tash uchun sog'lig'i va jismoniy rivojlanishida cheklanishlar mavjud bo'lmagan fuqarolar kiritildi.

"V" toifadan havo-desant qo'shinlarida va ularga tenglashtirilgan harbiy qismlarda harbiy xizmat o'tashiga, alohida harbiy mutaxassisliklar bo'yicha xizmat qilishga monelik qiladigan kasalliklari yoki jismoniy nuqsonlari mavjud bo'lgan fuqarolar o'rin oldi.

"S" toifa vakillari mavjud kasalligi yoki jismoniy nuqsonlari Qurolli Kuchlarning ayrim bir turida hamda muayyan harbiy mutaxassislik bo'yicha harbiy xizmat o'tashiga monelik qiladigan fuqarolardan iborat.

"D" toifaga salomatligiga ko'ra harbiy xizmatga chaqirilish muddatini kechiktirishga va davolash-sog'lomlashtirish choralarini o'tkazishga muhtoj bo'lgan fuqarolar kiradi. Berilgan xulosada fuqaroni harbiy xizmatga vaqtincha yaroqsiz deb hisoblash davrining muddati belgilanadi.

"E" toifadan tinchlik davrida harbiy xizmatga yaroqsiz, urush davrida cheklangan ravishda harbiy xizmatga yaroqli fuqarolar o'rin olgan.

"F" toifa vakillari esa harbiy hisobdan chiqarilgan holda harbiy xizmatga yaroqsiz deb topilgan fuqarolardan iborat.

A, V va S yaroqlilik toifalari tayinlangan fuqarolarga Qurolli Kuchlarning aynan qaysi turida xizmatni o'tashi belgilab qo'yiladi.

Bundan tashqari, 1993-yilda harbiy xizmatga chaqiruv manzillarida mutaxassislar va tibbiy anjomlar bilan bog'liq muammolar ham uchragan. Garchi hukumat idoralari tomonidan chaqiruv punktlarini kerakli mutaxassislar va asbob-anjomlar bilan ta'minlanishi belgilanganligiga qaramay, Toshkent viloyati va shahrida chaqiruv bo'limlarida hay'at a'zolarining zarur asbob-uskunalarini (tanometr, skiaskopik asboblar) bilan ta'minlanmaganligi, sanitariya-gigiyena qoidalariga javob beruvchi shart-sharoitlar yaratilmaganligi (qo'l yuvgichlarning ishlamasligi) kuzatildi. Bu kamchiliklar Prezident apparati va Sog'liqni saqlash vazirligi xodimlarining aralashuvidan so'ng bartaraf etildi[1].

2001-yilgi chaqiruv davrida Samarqand viloyatining Oqdaryo, Bog'ishamol, Jomboy, Kattaqo'rg'on, Qo'shrabot, Urgut hokimliklari tomonidan tibbiy asbob-uskunalarini ta'minlash va boshqa bir qator masalalar uchun kerakli mablag' ajratilmagan. Bu esa tibbiy komissiya faoliyati sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

2003-yil bahorida fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga chaqirish, safarbarlik chaqiruv rezervidagi xizmatga olishni o'tkazish yakunlariga ko'ra, chaqiriluvchilarni

sifatli laboratoriya tekshiruvi hamda yuqori malaklai tibbiy shifokorlar tomonidan tibbiy ko'rikdan o'tkazish va ularga to'g'ri tashxis qo'yilishida tubdan o'zgarishlarni ta'minlash kabi masalalarda belgilangan rejalar borasida kutilgan natijaga erishilmadi. Jumladan, Qashqadaryo viloyati chaqiruv punkti tibbiy asbob-uskunalar bilan 70% ta'minlangan. Ba'zi viloyatlarda bu natija 75% ni tashkil etgan. Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on va Chinoz tumanlarida oshqozon a'zosini tekshiruvchi apparat yo'qligi aniqlangan.

Yuqoridagi kamchiliklarga olib kelgan omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:  
birinchidan, okrug shtab va boshqarmalarida tegishli nazoratning yo'qligi;  
ikkinchidan, mudofaa ishlari boshqarma va bo'limlari ofitserlarining kasbiy ta'lim darajasining pastligi;

uchinchidan, davlat va jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalarining yo'qligi;

to'rtinchidan tibbiy tekshiruv sifatining pastligi.

Xususan, Nishon tumanida chaqiruv yoshidagi yoshlarni tibbiy tekshiruvdan o'tkazish muassasasi Mudofaa vazirligi bosh inspeksiyasi tomonidan 2004-yilda olib borilgan tekshiruv davomida tibbiy jihozlar va tibbiy xodimlar malakasi yetarli emasligi aniqlangan[1].

Bundan ko'rinadiki, chaqiruv punktlari zaruriy tibbiy uskunalar bilan yetarli darajada ta'minlanmasligi shifokorlar ish samaradorligi va tibbiy xulosalarga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatgan. Bunga mudofaa ishlari boshqarma va bo'limlari tomonidan chaqiruv jarayonlari sust olib borilganligi va hokimliklar tomonidan o'z vaqtida yetarli mablag' bilan ta'minlanmaganligi sabab bo'lgan. Masalan, 2001-yil Samarqand viloyatining Oqdaryo, Bog'ishamol, Jomboy, Kattaqo'rg'on, Urgut tumanlari hokimliklari tomonidan kerakli mablag' o'z vaqtida ajratilmagan[1].

Milliy armiyani zamonaviy tibbiy bilimga ega harbiy kadrlar bilan ta'minlash maqsadida ularning xorijiy davlatlarda ta'lim olishi masalasida ham bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Mudofaa vazirligining 1999-yil 25-avgustdagi №202-sonli qarorida Sog'liqni saqlash va Mudofaa vazirligi tizimida psixologlar tayyorlanmasligi va shtat jadvalida yo'qligini inobatga olib hokimliklar tomonidan maorif sohasida xizmat qilayotgan psixologlar chaqiruv komissiyasiga jalb qilinishi va chaqiruv komissiyalarini psixologlar bilan ta'minlash imkoniyati bo'lmagan taqdirda viloyatlarda joylashgan o'qituvchilar malakasini oshirish institutlari bilan kelishilgan holda tibbiy chaqiriq komissiyalarida ishtirok etayotgan psixiatrlarning qisqa muddatli shakllarda psixologiya bo'yicha malakasi oshirilishi belgilandi[1]. Zahiraga olingan ofitser nomzodlarini o'qitish malakasini oshirish va qayta tayyorlash borasida 2003-yil davomida 70 nafar Mudofaa vazirligi tibbiyot xizmati rahbar ofitserlari xizmatning taktika va tashkilotchilik sohasida 45 kunlik o'quv darslari tashkil etildi[1]. 2007-yil iyul-avgust oylari mobaynida Mudofaa vazirligi tanlov komissiyasi Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligining harbiy ta'lim muassasalariga yuborish maqsadida navbatdagi o'quv yili uchun saralangan 76 nafar nomzodlarning 12 nafari Toshkent tibbiyot akademiyasi tomonidan taqdim etilganligi buning yaqqol misolidir.

Mamlakatimizda 2012-yilga qadar Qurolli Kuchlar uchun tibbiyot ofitserlarini tayyorlaydigan ta'lim muassasasi mavjud bo'lmagan. Harbiy shifokorlar ko'pincha fuqarolik tibbiyot oliy o'quv yurtlarining bitiruvchilari bo'lishgan. Mazkur islohotlarning mantiqiy davomi sifatida 2012-yil 10-iyulda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tibbiyot mutaxassislari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash markazi hamda Toshkent tibbiyot akademiyasining harbiy kafedrasini qayta o'zgartirish yo'li bilan Toshkent tibbiyot akademiyasi huzurida harbiy-tibbiyot fakulteti tashkil etilgan[3]. Fakultetda beshta kafedran iborat bo'lib, kursantlarga qo'shinlarni tibbiy ta'minlashni

tashkil etish, harbiy dala xirurgiyasi, terapiya, gigiyena va epidemiologiya, toksikologiya va radiologiya, tibbiy himoya usullari va turli xil kimyoviy urush vositalaridan jarohatlanganda davolash usullari bo'yicha ta'lim berilgan.

2020-yil 22-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Harbiy tibbiyot sohasida kadrlarni tayyorlashning sifat jihatdan yangi tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy tibbiyot akademiyasi tashkil etildi[5]. Bu esa harbiy kadrlar sifati va salomatligi davlat siyosatining muhim masalalaridan biri ekanligini anglatadi. Akademiyada taxsil olish uchun nomzodlar Mudofaa vazirligi tomonidan tibbiy ta'lim muassasalarining davolash fakultetlarining beshinchi, tibbiy-profilaktika fakultetining to'rtinchi bosqichini tamomlagan, kelgusida harbiy xizmatchi bo'lish istagini bildirgan, o'qish mavsumi davomida eng yuqori natijalarni ko'rsatgan, sog'ligining holati harbiy xizmatga yaroqli talabalar orasidan tanlab olinadi.

**XULOSA.** Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, harbiy ishni tashkil etish va olib borishda kadrlar salomatligi masalasi asosiy o'rinni egallaydi. Jismonan baquvvat va sog'lom kadrlargina milliy armiya rivojida samarali natijalar qayd etishi mumkin. O'tgan o'ttiz yillik davr mobaynida xizmatga chaqiriluvchilar va harbiy xizmatchilar salomatligini ta'minlash masalasida amalga oshirilgan ishlar quyidagi natijalarga olib keldi:

birinchidan, harbiy tibbiyot mutaxassislarining malakasini oshirish hamda tibbiy komissiya faoliyatining moddiy-texnik ba'zasini yaxshilash orqali harbiy xizmatga layoqatsiz kadrlarning armiya safiga yuborilishini kamayishiga;

ikkinchidan, o'smir-yoshlarni salomatligini doimiy nazoratda tutish orqali Qurolli Kuchlar safini sog'lom kadrlar bilan ta'minlashga;

uchinchidan, alohida harbiy tibbiyot fakulteti va akademiya tashkil etish, xorijdagi harbiy tibbiyot muassasalarida ta'lim olish orqali ushbu sohaga malakali mutaxassislarni jalb etishga zamin yaratilgan.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Mudofaa vazirligi davlat arxivi (O'zMVDA), 45-fond.

O'zbekiston Milliy arxivi (O'zMA), M-69 - fond.

<https://lex.uz/ru/docs/-2029726>

<https://lex.uz/docs/-4127311?ONDATE=05.05.2021>

<https://lex.uz/docs/-5065188>

Анварова Л.У. "Комплексная оценка состояния здоровья курсантов военных училищ и пути дальнейшего его улучшения". Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата медицинских наук. Ташкент. 2007.

Воронина Н.В. "Гигиеническое обоснование рационализации питания военнослужащих республики Узбекистан в мирное время". Диссертация на соискание ученой степени доктора медицинских наук (DSc). Ташкент. 2019.